

BUGUNGI KUNDA IQTISODIY SOHANI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Tuxtayev Azizbek To'liqin o'g'li

Buxoro viloyati Vobkent tumanidagi 1-son texnikum iqtisod fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida ta'lim tizimi va inson shaxsining o'rni, iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillari sifatida ta'lim sifati, o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion fikrlash hamda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy rivojlanish, ta'lim tizimi, inson shaxsi, ta'lim sifati, innovatsion ta'lim, raqobatbardosh kadrlar, iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik ko'nikmalari, malakali mutaxassislar, taraqqiyot.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri - inson shaxsidir. Inson shaxsini shakllantirishda esa albatta ta'lim tizimi hal qiluvchi o'rin egallaydi. Bugungi kun zamonaviy iqtisodiy bilimga ega, mustaqil va erkin fikrlaydigan, mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion g'oyalarga ega yosh kadrlarni talab etmoqda. Shu sababli iqtisodiy taraqqiyot masalalarini ta'lim sohasi, xususan, o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonidan ajratib ko'rib bo'lmaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktab va oliy ta'lim muassasalarida berilayotgan ta'lim sifati, ta'lim oluvchilarlarda iqtisodiy tushunchalar, tafakkur, tadbirkorlik ko'nikmalari va kasbiy yo'naltirilganlikni shakllantirish mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy salohiyatini belgilab beradi. Shuning uchun ham iqtisodiyotni rivojlantirish omillarini o'rganishda ta'lim tizimidagi islohotlar, pedagogning jamiyatdagi o'rni hamda ta'lim oluvchilarning bugunning innovatsion zamon talablariga mos bilim olishi masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy sohani rivojlantirish ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ularning markazida ta'lim tizimi shu bilan birga malakali kadrlar tayyorlash masalasi turadi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyatning iqtisodiy yuksalishi avvalo ta'lim sifatiga, yoshlarning bilim darajasi va amaliy ko'nikmalariga tayanadi. Shu jihatdan qaralganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarga berilayotgan bilimlar shaksiz mamlakat iqtisodiyotining kelajakdagi poydevorini tashkil etadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri - zamonaviy bilim va innovatsiyalar, yangi g'oyalar va yangicha qarashlarni joriy etishdir. Bu jarayon bevosita ta'lim oluvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini, AKT vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, innovatsion interaktiv metodlar va amaliy mashg'ulotlarning keng qo'llanilishi o'quvchilarning bilimni hayotga tatbiq etish imkoniyatini oshiradi. Natijada, kelajakda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik sohalarida faoliyat yurita oladigan raqobatbardosh mutaxassislar bo'lib chiqadi.

Shuningdek, iqtisodiy rivojlanishda tadbirkorlik muhitini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada ta'lim oluvchilarda yoshligidanoq iqtisodiy bilimlar, savodxonlik va tashabbuskorlikni rivojlantirish zarur. Ta'limiy jarayonlarda iqtisodiyot asoslari, kasbga yo'naltirish mashg'ulotlar, faoliyatlar hamda amaliy loyihalar orqali o'quvchilar kelajak kasbini ongli tanlashga o'rganadilar. Bu esa mehnat bozorida malakali kadrlar safining ortishiga va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish omillaridan yana biri - pedagogning jamiyatdagi o'rni va mas'uliyatidir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi muhim fazilatlarni shakllantiruvchi shaxs hisoblanadi. Ta'lim jarayonida pedagoglarning innovatsion yondashuvi va kasbiy mahorati o'quvchilarning bilim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada esa jamiyat ehtiyojlariga mos, malakali va raqobatbardosh kadrlar yetishtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda iqtisodiy sohani rivojlantirish jarayoni ta'lim tizimi bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va izchil taraqqiy etishi, avvalo, bilimli, malakali va raqobatbardosh yosh avlodni tarbiyalashga bog'liqdir. Bu jarayonda ta'lim muassasalari, pedagoglar hamda o'quvchilarning o'zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor, zamonaviy o'qitish metodlari va innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik ko'nikmalari va kasbiy malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada esa jamiyat ehtiyojlariga mos, mustaqil fikrlay oladigan va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'sha oladigan kadrlar yetishib chiqadi.

Shu sababli iqtisodiyotni rivojlantirish omillarini tahlil qilishda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning bilim va salohiyatini oshirish ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Zero, bugungi ta'lim - ertangi iqtisodiy taraqqiyotning mustahkam poydevoridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishga oid qaror va farmonlar to'plami. - Toshkent, 2020.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Xodiev B.Yu. Milliy iqtisodiyot asoslari. - Toshkent: O'zbekiston, 2018.
5. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Ismoilov R., To'xtasinov M. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlanish. - Toshkent, 2021.
7. Rasulov D.A. Tadbirkorlik faoliyati asoslari. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.